

O'ZBEK KULOLCHILIK LEKSIKASI SHAKLLANISHINING ILK
BOSQICHI

Urganch davlat universiteti talabasi

Qodirova Mashhura

Annotatsiya: Maqolada o'zbek kulolchilik leksikasi tahlil qilindi. Amaliy san'at tarmoqlaridan biri bo'lgan kulolchilik terminlarining o'rganilishi va uning tarixi ko'rib chiqildi. Kulolchilik leksikasining o'zbek tilining boyitishidagi ahamiyati ochib berildi.

Kalit so'zlar: kulolchilik, loy, sopol buyumlar, xum, tandir, tog'ora, ko'za tovoq, xurmacha, bodiya.

Kulolchilik qora loydan mo'jizakor go'zallik yaratgan sharqning eng qadimiy hamda navqiron san'atidir. Bu qora loy saxovat, halollik, ezgulik timsolidir. Tuproq insonlarning barcha ehtiyojini o'z zimmasiga olgan farovonlik, to'kinlik, rizq-ro'z, go'zallikning eng oliy ko'rinishi, san'atining zaminidir. Kulolchilik bilan dunyodagi barcha xalqlar shug'ullanadi. Ular o'ziga xos tomonlari bilan bir-biridan farq qiladi. O'zbek kulolchiligi uzoq tarixda ajoyib an'analar, shakl, mazmun, ijodiy jarayon va o'ziga xos uslubga ega. Sopol buyumlari sodda bo'lsa-da uning ko'rinishi, qismlarining aniqligi, mutanosibligi saqlanishi, naqshlarning badiiy joylashishi, shakl va mazmunining birligi, uyg'unligi o'zbek kulollarini jahonga tanitib kelmoqda. Kulolchilik hunari loydan *piyola, kosa, tovoq, ko'za, lagan, xurmacha, tog'ora, xum, tandir, buyum, o'yinchoqlar* va boshqalar tayyorlaydigan soha bo'lib, u uzoq tarixga ega. Maxsus tuproqni o'ta qizdirganda toshsimon bo'lib pishishini, undan har xil idishlar tayyorlashni odamlar juda qadimdan- neolit davining boshlaridayoq bilganlar. Ular avval loydan idish-tovoqlar yasab, gulxanda qizdirib pishirganlar. Tuproq jahonning hamma yerlarida bo'lgani uchun kulolchilik keng tarqalgan bo'lib, dastlab bu hunar bilan ayollar shug'ullanganlar. *Kulolchilik charxi* miloddan avvalgi 3-ming yillikning boshlarida ixtiro qilingandan keyin kulolchilik bilan erkaklar shug'ullana boshlaganlar. Keyinchalik loydan yasalgan *idish-tovoqlarni* maxsus o'choq hamda xumdonlarda pishirganlar.

Neolit davrida idishlarni tagi uchli qilib tayyorlanib yerga sanchib qo'yilgan. Eneolit davrida esa Sharq mamlakatlarida hamda qadimgi Gretsiyada nafis kulolchilik idishlari rivoj etgan va me'morchilikda sopol dan foydalana boshlangan.

Misol tariqasida qadimgi Gretsiyada, aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, eramizdan avvalgi davrlarda ishlangan kulolchilik buyumlarini olish mumkin. Antik

Gretsiyaning Arxayka davrida ishlangan, Fransua vazasida 200 dan ortiq tasvir tushirilgan kulolchilik buyumi topilgan, yoki Eksekiy tomonidan ishlangan kichik, ya'ni vino ichishga mo'ljallangan idishning ikki qismida, katta ko'z tasviri tushirilgan. Bu esa vino ichuvchiga ko'z tegmasin degan maqsadda chizilgan. Tasvir tashqi qismida esa «Qayiqdagi Dionis» afsonasi tasvirlangan. Bu ikkala kulolchilik buyumida ham nafis tasviriy san'at bilan kulolchilik san'ati uzviy bog'lanib ketganidan darak berib turibdi.¹

VIII – XXII asrlarda kulolchilik O'rta Osiyoda yaxshi rivojlangan. Buni Afrosiyobda va O'rta Osiyoning boshqa yerlarida topilgan kulolchilik buyumlari isbotlab berdi. O'sha davrlarda O'rta Osiyo madaniyati tez sur'atlar bilan rivojlandi. Yangi ko'tarilish davri bo'ldi. Ko'pgina olim, yozuvchi va mutafakkirlar, ya'ni Abu Ali ibn Sino, Beruniy, Firdavsiy, Rudakiylar yetishib chiqdi. Butun dunyoga mashhur bo'lgan me'morchilik yodgorliklari bunyod etildi. Buxoroda Ismoil Somoniy maqbarasi qurildi. VIII asrda mo'g'ullar bosqinchiligi oqibatida Buxoro, Samarqand, Urganch, Mavr, Balx yong'in ostida qoldi. Oqibatda kulolchilik san'ati rivojiga putur ketdi. XIV asrdan boshlab O'rta Osiyo hududida kulolchilik tez sur'atlar bilan rivojlandi.

Amur Temur xalq amaliy san'atining rivojlanishida juda katta xizmat qildi. Bosib olingan joylardan ustalarni olib kelib ular uchun rastalar ochtirdi. Mashhur go'zal, nafis binolar, qasrlar, saroylar qurdirdi. Amur Temur vafotidan so'ng o'zaro ichki janglar oqibatida Temuriylar xonligida markazlashgan xonlik kuchsizlanib ketdi. Natijada Buxoro, Xiva, Qo'qon xonliklari paydo bo'ldi. O'rta Osiyoda bir necha feodal davlatning bunday ajralishi natijasida o'zaro aloqa susayib ketishiga sabab bo'ldi. Shuning uchun ham kulolchilik turli yerlarda turlicha rivojlangandir. XIX asrga kelib kulolchilik mamlakatlari tashkil bo'la boshladi. O'rta Osiyoda suvga bo'lgan ehtiyoj katta bo'lgani uchun sopol idishlarni tez sur'atlar bilan ishlab chiqarishga ehtiyoj sezildi. Asrlar osha ularning shakli va bezagi nafislashib bordi. Ustalar turli-tuman kulolchilik buyumlarini yasashdan tashqari ularni yuksak did bilan bezay boshladilar.

XIX asrda arzon baho chinni ishlab chiqarilishi va Rossiyadan chinni idishlarning ko'plab olib keltirilishi O'rta Osiyo hududida sopol buyumlar ishlashni

¹ Ибрагимова З. Ю. Қорақалпоғистон ўзбек шевалари қишлоқ хўжалиги лексикасининг лингвогеографик тадқиқи: Филол. фан. номз.... дисс. автореф. –Тошкент, 2009.

birmuncha pasaytirib yubordi. Lekin arzon sopol idishlardan me'morchilikda keng foydalanish kulolchilikning rivojlanishiga to'sqinlik qila olmadi.²

XIX asrda O'rta Osiyoda tojik va o'zbek xalqlari o'rtasida kulochilik juda keng rivojlanib G'ijdivon, Panjikent, Samarqand, Shahrisabz, Toshkent, Rishtonda kulolchilik markazlari paydo bo'ldi. Ular sopol idishlarini sirlab bezatishning o'ziga xos uslublarini vujudga keltirdilar. Ayniqsa, ishlab chiqarilayotgan kulolchilik mahsulotlarining sifatliigi, chiroyliliigi, naqshlarining nafis va ta'sirchanligi bilan shuhrat qozondilar. 1930 -yilda Toshkentda eksperimental keramika va Samarqandda keramika ustaxonalari ochildi. 1932 -yilda Toshkentda o'quv ishlab chiqarish ustaxonasi tashkil etilib, u yerda xalq amaliy san'ati ustalari, shu qatori kulollar tayyorlaydigan kurslar tashkil etildi (1943- yilda Shahrisabzda o'quv – ishlab chiqarish badiiy kombinati ishga tushdi). Kulolchilik sir-asrorlarini mashhur kulollar yoshlarga sidqidildan o'rgatdilar. Bu rishtonlik kishilar bilan Uzoq Shirmatov, Xolmat Yunusov, Gijdivonlik Muhammad Siddiq, Usmon Umarov, toshkentlik Turob Miralev, shahrisabzlik Rustam Egamberdiyev, Karim Hazratqulov va boshqalar edi.

Ko'pgina kulolchilik ustaxonalari, artellari tashkil etildi. 40- yillarida G'ijdivondagi «Namuna», Rishtonda «Yangi hayot» artellari faqat jumhuriyatimizda emas, balki butun dunyoga mashhur edi.

Xivada qadimda yuksak taraqqiy etgan badiiy hunarmandchilik turlaridan biri badiiy kulollikdir. Xiva kulolliigi taraqqiyotida tub burilish davri naqshli sopol idishlarning xilma-xil, yangi shakllari yuzaga kelgan Kushan davriga to'g'ri keladi.

Kanguy davrida ham Xorazm kulochiligi taraqqiyoti yuksak darajaga ko'tarildi. *Kulolchilik charxida* idish yasash to'liq o'zlashtirildi, tayyorlash hamda bezashning asosiy turlari ishlab chiqildi. Tuproqqal'a sopol idishlariga qaraganda, naqshlar tushirilgan idishlar emas, balki qizil angob bilan pardoziangan idishlar hashamdor hisoblanib, qadrlangan.

Afrig'iylar davri (IV – VII asrlar)da Xorazm kulolchiligi inqirozga yuz tutdi.

Pishirilgan oq loy, qum, gips aralashmali dag'al loydan tayyorlangan yirik idishlar ko'p uchraydi. Pardoziash yo'qoldi: qizil sof angob o'rnini ko'kimtir-kulrang va ko'kimtir-sariq tuslar egalladi.

Markaziy Osiyoda islom dinining qaror topishi, xalqaro savdo jadal rivojlanishi, shaharlar o'sishi bilan badiiy hunarmandchilikning ahamiyati oshdi,

² Ишаев А. Ўзбек диалектал лексикографияси. – Тошкент: “Фан” нашриёти, 1990.

shu davrda yuzaga kelgan sirlangan sopollar keng tarqaldi. Sirlangan sopolga talab ortishi bilan hunarmand – kulollar uyushmalari yuzaga keldi.

VIII-X asrlarda kulollik san'ati badiiyligi va tayyorlash usuli takomillashadi, sopol idishlarning yangi turlari paydo bo'ldi, ularni bezash usullari va bezak ko'rinishlari o'zgardi. O'zining ifodaliligi bilan diqqatni tortuvchi bezak naqshlar birinchi o'ringa chiqdi.

Ustalar yasagan buyumlar – *kosa, lagan, ko'zalar* xilma-xilligi, o'ta ixcham va nafis shakllari yaxlitligi bilan ajralib turgan. Sirlangan buyumlar yasashning takomillashishi kulollarning asosiy yutuqlari bo'ldi. Sirlangan ishqorli va qo'rg'oshinli turini qo'llash yashil, nafarmon - jigarrang, oq, sariq va qizil rang bo'yoqlar majmuini belgilab berdi.

Ustalar ikki va bir rangli sipo naqshlar orqali g'aroyib ta'sirchan fayzga erishadilar. Naqshlar bilan birgalikda angobga chizilgan nafis o'yma bezaklar ham qo'llanilgan. Kosa va laganlarni bezashda turli markaziy, hoshiya, to'rt taqsimli, ikki taqsimli aylana shakllar va ularning o'zaro qo'shiluvidan iborat mujassamotlardan foydalanilgan.³

Rang-barang naqsh mavzularini – o'simlik, hayvon, osmon jismlari, handasaviy, bitikli mavzularni qo'llagan ustalar naqsh bezak maqsadlariga bo'ysundirilgan o'z badiiy ifoda tillarini yaratdilar. Bu badiiy usul o'zining asosiy xususiyatlari bilan O'rta va yaqin Sharq amaliy san'ati turlari uchun umumiy bo'lgan. Biroq Xorazm sopol buyumlarini mahalliy o'ziga xosligi bilan osongina ajratib olish mumkin.

XIII asr boshlarida mo'g'ullarning vayronlik keltirgan hujumlari Markaziy Osiyo mintaqasidagi davlatlarning iqtisodi va san'ati taraqqiyotiga katta zarar yetkazdi. Xorazmda ham hunarmandchilik, shu jumladan, kulollik inqirozga uchradi.

Biroq sopol idishlarga bo'lgan talab tufayli kulollik boshqa hunarmandlarga qaraganda ilgariroq tiklandi. XIV asrga kelib mahalliy badiiy kulollik yuksalish pallasiga kirdi. Sopol idishlar shakli, nisbati, hajmi xilma-xil bo'lib, bezagi boyidi.

Kulollikda o'tda pishirishning joriy etilishi tufayli ko'kish, kulrang sopol buyumlar yasala boshladi, ularni qoliplarda quyish bo'rtma naqshli buyumlarni tezkorlik bilan yasash imkonini byerdi. Sirli sopol buyumlarda uyg'unligi ham o'zgardi – iliq tuslar o'rnini sovuq ko'k – qora va ko'kimtir – feruza ranglar egalladi.

³ Жуманазаров Ю. Ўзбек тилининг Жанубий Хоразм [ўғуз] диалектининг синтактик курилиши. – Тошкент: Фан, 1976.

Naqshlarda uslublashtirilgan o'simlik bo'laklari, kesma dog'ular, uslublashtirilgan baliq ko'rinishidagi turunj va hako'zlar tasvirlandi.

Ko'hna Urganch, Mizdaxkon, Xivada topilgan Xorazm keramikasida og'zi ochiq *katta kosa va ko'zalar* ayniqsa ta'sirchan. Ularning ichki yuzasi yirik turunj yoki mayda chiziqchali naqsh uzra qush shakllari bilan to'ldirilgan. Ranglar uyg'unligi qora, yashil, to'q-ko'k, moviy va yoyiluvchan feruza - moviy ranglar tufayli yaratilgan. XIV asrda Xorazm kulolligi Oltin O'rda tarkibidagi Volgabo'yi va Shimoliy Kavkaz kulolligi rivojiga ham samarali ta'sir ko'rsatdi.

XV-XVI asrlarda Xorazmda Xitoydan Markaziy Osiyoga ko'plab keltirilgan xitoy chinni buyumlariga taqlidan ko'k bezakli sopol buyumlar tarqaldi.⁴

XVI-XVII asrlarda Xorazm kulolligi amaliy san'atning boshqa turlari kabi ma'lum inqirozga uchradi: shakl va bezakda mahorat pasaydi. Biroq ustalar ijodida ko'p an'anaviy xususiyatlar saqlanib qoldi: oq rang uzra chizilgan naqshli buyumlar va feruza sir bilan qoplangan bir rangli idishlar tayyorlandi.

XIX asrning ikkinchi yarmida me'moriy koshinkorlikning yuksalishi Xiva kulollik san'atida ham o'z aksini topdi. XIX asrning 30-40 yillarida rus sayyohlaridan biri: "Xivada katta hajmli va juda yaxshi idishlar yasashadi, ular biznikidan pishiqroq va unga turli ranglarda sir bera oladilar", - deb yozgandi.

Kulollar faqat buyumlar tayyorlash bilan cheklanib qolmay, bir necha yuzlab lagan, tovoq va kosalardan iborat butun bir to'y majmualarini tayyorlaganlar.

Ovqat solinadigan idishlardan chuqur va keng, yonlari tik, tagligi baland an'anaviy shaklli *bodiya* qadrlangan. *Bodiya* ko'rimli shakl va ishlatishdagi qulayligi tufayli turli hajm va nisbatda ishlangan. Bular: koshin bodiya, ullu bodiya, mashadi bodiya, chanoq bodiya. Alohida tantanalar uchun maxsus to'y tovoq yoki podshoyi tovoq ham tayyorlangan.

Markazli, to'rt qismli, ikki qismli va murakkab mujassamotli bezaklar bodiyaning butun yuzasini qoplagan. Bu buyumlarda nafis o'simlik gullari salobatli so'niq ranglar bilan uyg'unlashgan.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida turmush sharoitining og'irligi va madaniy inqirozga qaramay xalq ustalari o'z san'atlari an'alarini saqlab qola oladilar. Kulollik sohasida usta Ollaqora, usta Yusuf kulol, usta Vois, Iskandar Qalandarov va boshqa taniqli ustalar ishladilar. Bu davrda bezakli kulollik buyumlari ranglari

⁴ Дониёров Д. Ўзбек тили техник терминологиясининг айрим масалалари, "Фан" нашриёти, Тошкент, 1977.

birmuncha to‘qroq, unda yashil rang tushlari asosiy o‘rinni egallaydi, oq va ko‘k ranglar ayrim bo‘laklardagina qo‘llanilgan. Bezaklarda shartli o‘simlik mavzulari bilan bir qatorda bu davr san‘atiga xos bo‘lgan tasviriylikda aniqlikka intilish ham kuzatiladi. Sopol buyumlar mujassamotida erkin to‘lqinga ega bo‘lgan *dutor*, *tuncha*, *g‘ijjak*, *rubob*, *miltiq tasvirlari* uchraydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ибрагимова З. Ю. Қорақалпоғистон ўзбек шевалари қишлоқ хўжалиги лексикасининг лингвогеографик тадқиқи: Филол. фан. номз.... дисс. автореф. –Тошкент, 2009.
2. Ишаев А. Ўзбек диалектал лексикографияси. – Тошкент: “Фан” нашриёти, 1990.
3. Жуманазаров Ю. Ўзбек тилининг Жанубий Хоразм [ўғуз] диалектининг синтактик қурилиши. – Тошкент: Фан, 1976.
4. Дониёров Д. Ўзбек тили техник терминологиясининг айрим масалалари, “Фан” нашриёти, Тошкент, 1977.